



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2024-yil 11-iyul, № 139 (8762)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## BYUDJET MABLAG'LARINING MOLIYAVIY NAZORATI KUCHAYTIRILADI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev  
budjet mablag'laridan foydalanilishi  
ustidan moliyaviy nazoratni  
kuchaytirish bo'yicha takliflar taqdimoti  
bilan tanishdi.**

Bugun dunyodagi murakkab jarayonlar iqtisodiyotga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Mablag' topish, jamg'arish, ko'paytirish tobora qiyin bo'lib bormoqda. Bunday sharoitda bor manbalardan samarali foydalanish, tejamkorlik va aniqlik yanada muhim.

Shu yil 16-yanvar kuni iqtisodiyotdagi ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida davlatimiz rahbari budjet xarajatlarning samaradorligi masalasiga alohida to'xtalib, moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha topshiriqlar bergan edi.

Ma'lumki, bu vazifani O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi amalga oshiradi. Hozirgi tizimda faqat budjet va maqsadli jamg'armalar xarajati tashqi audit bilan qamrab olingan. Bu jami xarajatlarning 86 foizini tashkil etadi.

Shu bois Hisob palatasi tomonidan konsolidatsiyalashgan budjet jirosini tashqi auditdan o'tkazish taklif etilmoqda. Bu budjetdan tashqari jamg'armalar hamda tashqi qarz hisobidan xarajatlarni ham qamrab olish imkonini beradi.

Hisob palatasi faoliyatida davlat dasturlaridagi milliy

maqsad va vazifalarga erishishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni baholashga qaratilgan strategik audit hamda davlat tashkilotlaridagi dasturiy ta'minotlar samaradorligi bo'yicha axborot texnologiyalari audit joriy etilishi mo'ljallanmoqda.

Yurtimizda 30 mingga yaqin budjet tashkiloti va davlat korxonalarini, ularni joyiga chiqib o'rganishga ko'p vaqt va mablag' ketadi. Shuning uchun Hisob palatasida "Masofaviy nazorat markazi" ishga tushirildi. Endi ilg'or xorijiy tajriba asosida 36 ta risk-tahlil mezonlari va indikatorlarni takomillashtirish zarurligi ta'kidlandi.

So'nggi yillarda hududlar rivojiga katta mablag'lar yo'naltirilyapti. Lekin mahalliy Kengashlar budjet muhokamasida, asosan, viloyat yoki tuman budjeti bilan cheklanayapti. Bu — har bir hududga barcha manbalardan berilayotgan mablag'ning 65-70 foizi ularning nazoratidan chetda qolyapti, degani.

Shu bois Hisob palatasi budjet jarayonini nafaqat Oliy Majlis palatalarida, balki mahalliy kengashlarda ham muhokama qilib borishi kerakligi qayd etildi.

## BYD BILAN HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH REJALARI KO'RIB CHIQUILDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyatidagi "BYD Uzbekistan Factory" zavodida  
amalga oshirilayotgan ishlar va galdagi vazifalar haqida hisobot bilan tanishdi.**

Mazkur korxonada shu yil 27-iyun kuni davlatimiz rahbari ishtirokida ishga tushirilgan edi. U BYD yengil avtomobillarini ishlab chiqaruvchi Xitoydan tashqaridagi ilk zavod bo'ldi.

Bugungi kunda BYD yangi energiya manbalarida harakatlanuvchi avtomobillar — elektromobillar va gibridlarni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha dunyoda yetakchi kompaniya hisoblanadi. U eng yaxshi texnologik baza, innovatsion yechimlar va sifat nazorati tizimlariga ega.

O'zbekistonga bunday yirik kompaniyaning kirib kelishi, avvalo, mamlakatdagi jozibador investitsion muhit va siyosat, shuningdek, avtomobilsozlik sohasida muhandis kadrlar, ishlab chiqarish bazasi, xomashyo va logistika

salohiyat borligi bilan bog'liq.

"O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi mazkur investitsiya loyihasining dastlabki natijalari va uni kengaytirishga qaratilgan rejalarni taqdim etdi.

Qayd etilganidek, to'liq ishlab chiqarish jarayonini ishga tushirish doirasida O'zbekiston korxonalarini tomonidan plastik qismlar, oynalar, bampelerlar, diskalar va boshqa ko'plab komponentlar ishlab chiqarilishi bo'yicha BYD sifat tizimiga mos kelishi uchun tahlil o'tkazildi.

Aholining yengil avtotransport vositalariga bo'lgan ehtiyojini qondirish va ularning turlarini kengaytirish maqsadida xitoylik hamkorlar bilan V, S va budjet avtomobillari segmentidagi avtomobillar ishlab chiqarish

bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Ularning birinchi namunalari xitoylik hamkorlar tomonidan zamonaviy standartlashtirish tizimi sinovlarini o'tkazish uchun laboratoriyalarga topshirildi.

Shuningdek, zamonaviy texnologiya va standartlarni nafaqat ishlab chiqarish, balki savdo, servis va kafolat yo'nalishlarida ham tatbiq etish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu sifatli mahsulot chiqarilishining oldini oladi hamda avtotransportga yuqori sifatli servis va kafolati xizmat ko'rsatilishini ta'minlaydi.

BYD bilan hamkorlik mahalliy kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ham o'z ichiga oladi. Jizzaxdagi "BYD Uzbekistan Factory" kompaniyasiga malakali mutaxassislarni jalb qilish maqsadida Jizzax politexnika instituti

va Toshkentdagi Turin politexnika universiteti bilan birgalikda yuqori malakali mutaxassislarni o'qitish bo'yicha muhandislik o'quv markazini tashkil qilish rejalashtirilgan.

Taqdimotda ishlab chiqarish hajmini belgilangan ko'rsatkichlarga yetkazish hamda mahalliylashtirish jarayonini jadallashtirish chora-tadbirlari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari "BYD Uzbekistan Factory" qo'shma korxonasi quvvatlarida ishlab chiqarishni tezlashtirish, hamkorlikning keyingi bosqichlari bo'yicha strategiya tayyorlash va kelgusida ishlab chiqarish quvvatini yillik 500 ming donaga yetkazish hamda eksport bozorlariga yo'naltirish bo'yicha aniq vazifalarni qo'ydi.

## IJTIMOY HIMOYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA TAKLIFLAR TAQDIMOT QILINDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev ijtimoiy himoya sohasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar taqdimoti bilan tanishdi.**

"O'zbekiston — ijtimoiy davlat" tamoyili asosida mamlakatimizda aholini qo'llab-quvvatlash, bu sohada sharoitlarni yaxshilash va xizmatlarni kengaytirish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Bunda nogironligi bor shaxslarga qulayliklar yaratish muhim vazifalardan. Shu maqsadda nogironlikni belgilashda raqamlashgan tizimga o'tish taklif etilmoqda.

Unga ko'ra bu davlat Toshkent shahri va Navoiy viloyatida, 2025-yil 1-sentabrga qadar barcha hududlarda boshqichma-boshqich joriy etiladi.

Ekspert komissiyalariga tibbiy hujjatlar o'zaro shifokorlar tomonidan elektron yuboriladi. Baholash Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining moslashtirilgan mezonlari asosida "Inson" markazlari xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Nogironlikni belgilash bilan bir vaqtda uning reabilitatsiya dasturi hamda protezga muhtojligi bo'yicha ma'lumotlar shakllantiriladi.

Endi ekspert komissiyalari tomonidan kasbga, ta'limga, sportga tavsiya berish, mehnatga layoqatsizlikni belgilash tartibi bekor qilinadi. Bunday shaxslar ish, sport va ta'limga individual yondashuv asosida yo'naltiriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning xavfsiz va to'siqsiz harakatlanishi uchun sharoitlarni kengaytirish ham ko'zda tutilmoqda. Shu bois quriladigan va ta'mirlanadigan binolar bunga moslashganligi bo'yicha majburiy ekspertizadagi o'tkaziladi.

"Xavfsiz yo'l" va xavfsiz piyoda" jamg'armasining kamida 10 foiz mablag'i har yili chorahalarini

nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moslashtirish bo'yicha qurilish va jihozlashga yo'naltiriladi. To'siqsiz elektron interaktiv xaritasi yaratiladi.

Jamoat transporti bo'yicha tenderlarda faqatgina nogironligi bo'lgan shaxslarga moslashtirilgan avtobuslar ishtirok etishi mumkin bo'ladi. Shahar jamoat transportida I guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga bepul xizmat ko'rsatiladi. Nogironligi bo'lgan shaxslarni madaniy tadbirlar, ko'ngilochar tomosha va marosimlarga jalb qilish bo'yicha amaliy choralar ko'riladi.

Taqdimotdagi yana bir taklif Jahon banki ishtirokidagi "Inson" loyihasi haqida bo'ladi. Bu loyiha aholining zaif qatlamini jamiyatga integratsiya qilishga qaratilgan

bo'lib, uning doirasida 55 ta ko'p funksiyali hududiy xizmatlar markazi tashkil etiladi va 20 turdagi ijtimoiy xizmat yo'lga qo'yiladi. Toshkent, Farg'ona va Samarqandda 4 ta namunalik inkluziv kasb-hunar ta'limi markazlari tashkil etiladi.

Besh ming nafar xodimning ijtimoiy ish bo'yicha malakasi oshiriladi. Moslashuvchan ijtimoiy xizmat va yordam bo'yicha normativ-huquqiy baza shakllantiriladi.

Sohadagi yana bir yangilik "ijtimoiy karta" tizimining joriy etilishi bo'ladi. Bu orqali ijtimoiy to'lovlar va subsidiyalarni, ijtimoiy xizmatlar va yordamlarni tayinlash, taqdim etish, monitoring qilish va baholash jarayonlari to'liq avtomatlashtiriladi. "Ijtimoiy karta" bir vaqtning o'zida ham to'lov vositasi, ham ehtiyojmand

toifaga mansublik tasdig'i hisoblanadi.

Bu tartib dastlab Toshkent shahri va Yangiyo'l tumanida, keyingi yildan boshqa hududlarda joriy etiladi. Natijada 72 turdagi ijtimoiy xizmatlar, 76 turdagi yordamlar va 200 ga yaqin imtiyozlar yagona elektron tizimga umimlashtiriladi. Qog'oz shaklidagi hujjatlar bekor qilinib, vaqt va mablag' tejiladi. Soha to'liq raqamlashtirilishi orqali har bir oilaning ehtiyojlari va imkoniyatlarini aks ettiradigan "ijtimoiy-raqamli pasporti" joriy etiladi.

Davlatimiz rahbari bu borada tegishli hujjatlarini ishlab chiqib, samarali joriy etish, ehtiyojmand insonlarning hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

O'zA.

### Prezidentga maktub

## SAMIMIY MINNATDORLIK

Yaqinda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida atoqli olim, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, akademik, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi Botirxon Valixojayevning "Tanlangan asarlar" kitobining taqdimoti bo'lib o'tdi.

Rahmatli Botirxon domla uzoq yillar mazkur ta'lim dargohida talabalarga mumtoz va zamonaviy o'zbek adabiyoti, adabiyotshunoslik fanidan saboq bergan, nafaqat Samarqand, balki butun mamlakatda o'zining ko'plab salmoqli ilmiy tadqiqot asarlari bilan keng tanilgan mo'tabar va zakiy zot edi.

Allomaning uch jildidan iborat "Tanlangan asarlar"ining birinchi va ikkinchi kitoblaridan "Mumtoz siymolar" turkumida yaratilgan Mavlono Lutfiy,

Xoja Ahror Valiy, Nizomiddin Mir Alisher Navoiy, Husayniy — Sulton Husayn, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug' shoir va mutafakkirlar haqidagi hamda Samarqand madrasalari tarixiga oid risolalar, uchinchi jildidan esa "O'zbek epik poeziyasi tarixidan" va "O'zbek adabiyotshunosligi tarixi" nomli fundamental tadqiqotlar o'r in olgan.

Muallifning oltin yillik ilmiy-ijodiy faoliyatining mahsul bo'lgan ushbu saylanma O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi ijodiy xodimlari, taniqli mutaxassis olimlar tomonidan tayyorlanib, yuqori poligrafik sifat bilan nashr etildi.

Samarqand davlat universitetida allomaning ko'plab safo-doshlari, ijodkor ziyolilar, professor-o'qituvchilar, talabalar

ishtirokida bo'lib o'tgan taqdimot marosimida Botirxon Valixojayevning turmush o'rtog'i Xadicha aya Vafoyeva ham so'zga chiqib, Yozuvchilar uyushmasi va universitet rahbariyatiga, domlaning hamkasblari va shogirdlariga tashakkur izhor qildi. Va mana shunday xayrli ishlar boshida mamlakat rahbarining o'zi turgani, uning ilm va ijod ahliga yuksak g'amxo'rlik va e'tibor ko'rsatayotganini alohida ta'kidlab o'tdi.

Quyida butun hayotini ilm-fan va ta'lim rivojiga, yosh avlod tarbiyasiga bag'ishlagan yetuk allomaning umr yo'ldoshi Xadicha aya Vafoyevaning shu munosabat bilan Yurtboshimiz nomiga yo'llagan maktubini e'tiboringizga havola etamiz.

Assalomu alaykum, muhtaram Shavkat MIROMONOVICH!

Men, Siz har doim hurmat qilib, e'zozlab kelgan Botirxon domlangiz (akademik Botirxon Valixojayev)ning ayoli Xadicha opangiz bo'laman. Yaqinda oilamiz hayotida ro'y bergan g'oyatda quvonchli bir voqea meni Sizga ushbu maktubni yo'llashimga da'vat etdi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan domlaning uch jildidan iborat "Tanlangan asarlar"i nashr etildi. Va ko'p o'tmay Samarqand davlat universitetida mazkur kitoblarni taqdimoti bo'lib o'tdi. Men ushbu xayrli ishga katta hissa qo'shgan domlaning shogirdlari, Yozuvchilar uyushmasi, noshirlar va universitet rahbariyatidan g'oyat minnatdor ekanimni bildirgan holda aytmog'chimanki, mana shunday xayrli ishlar boshida, albatta, Siz turibsiz. Sizning ilm va ijod ahliga ko'rsatayotgan cheksiz g'amxo'rlik va e'tiboringiz yurtimizda ana shunday savobli tadbirlarning amalga oshishiga zamin yaratmoqda.

Men Sizni viloyatimiz rahbari vazifasida olib borgan samarali faoliyatingizni, ayniqsa,

ilm va ijod ahliga har doim xayrixoh va jonkuyar bo'lganingizni, jumladan, vaqtigingiz har qancha tig'iz bo'lmasin, Botirxon domlangizdan dam-badam xabar olib turganingizni haligacha minnatdorlik bilan eslayman. Ko'p yillar ta'lim-tarbiya sohasida ishlagan bir inson sifatida men Sizning bu ishlaringiz ahamiyatini juda yaxshi tushunaman va farzandlarim, nevarachevaralarimga bu haqda faxrlanib so'zlab o'tiraman.

Qadrii Shavkat Miromonovich! Siz bugun O'zbekiston rahbarisiz, butun yurt mas'uliyati Sizning zimmanızda. Mehribon Egam Sizga ana shunday buyuk sharaf va mas'uliyatni munosib ko'rgan ekan, har doim O'zi qo'llasin. El-yurt ishonchi, ko'pning duosi Sizga mudom madadkor bo'lsin!

Savobli va sharafli xizmatlaringiz yo'lida Yaratgandan Sizga tuganmas kuch-quvvat, mustahkam sog'liq va omadlar tilayman. Vatanimiz, xalqimiz baxtiga hamisha omon bo'ling!

Xadicha VAFOYEVA,  
mehnat faxriysi.

## O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik to'rtinchi yalpi majlisi to'g'risida AXBOROT

10-iyul kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik to'rtinchi yalpi majlisi bo'lib o'tdi.

Unda Senat, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Videokonferensaloqa tarzida o'tkazilgan yalpi majlisi Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboeva olib bordi.

Yalpi majlis Senatning "YouTube" tarmog'ida sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib borildi.

Senatorlar o'z ishini yangi tahrirdagi "Elektr energetikasi to'g'risida"gi qonunning muhokamasidan boshladi.

Ta'kidlanganidek, amaldagi Qonun 2009-yilda qabul qilingan bo'lib, unda elektr energiyasining ulgurji va chakana bozori, jumladan, sohada raqobatni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari nazarda tutilmagan, elektr ta'minotining ishonchli, xavfsiz, barqaror hamda kam xarajatli ishlashini ta'minlaydigan normalar aks ettirilgan, iste'molchilarning narxlar va xizmatlar ko'rsatish sifati bo'yicha manfaatlarini himoya qilish kafolatlari belgilanmagan. Shu boisdan bugungi kun talablariga to'liq javob bermadi.

Yangi tahrirdagi "Elektr energetikasi to'g'risida"gi qonun bilan iste'molchilarning narxlar, ishonchli elektr ta'minoti va xizmatlar ko'rsatish sifati bo'yicha manfaatlarini himoya qilish, elektr energiyasi jiddiy to'siqsiz sotiladigan likvidli bozorni shakllantirish maqsadida samarali, shaffof, tabaqalashmagan va raqobatdosh elektr energiya bozorining yuzaga kelishi va rivojlanishiga ko'maklashish nazarda tutilmoqda.

Qonunda raqobat muhitini rivojlantirish, xususiy sarmoyalarni jalb qilish va joriy etishni rag'batlantiruvchi elektr energetika tarmog'ining samarali faoliyat yuritishi uchun tuzilma va



umumiy qoidalar belgilanmoqda.

Xususan, qonunda insofli raqobat, tenglik va hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik, elektr energetikasi xavfsizligining ustuvorligi kabilar sohaning asosiy prinsiplari etib belgilanib, elektr energetikasi sohasining maqsadlariga oid yangi modda kiritilmoqda.

Qonunda elektr energiyasining raqobatga asoslangan ulgurji va chakana bozor qoidalari ham aks ettirilmoqda. Bundan tashqari, qonunda elektr energiyasi bozorida treyderlar (jismaniy yoki yuridik shaxslar) faoliyatini tartibga solishga qaratilgan umumiy qoidalar, ularning huquqlari va majburiyatlariga oid norma kiritilmoqda. Senatorlar ta'kidlashicha, qonunning

qabul qilinishi sohaga xususiy investitsiyalarni jalb qilishga va bu orqali elektr energetikasi sohasining samarali faoliyat yuritishiga, elektr energetikasi korxonalarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklari belgilanishiga hamda elektr energiyasini qayta tiklanadigan energiya manbalari bilan ishlab chiqarishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shundan so'ng "Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda energiya barqarorligini ta'minlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejovchi

texnologiyalarni joriy etish, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Hozirda mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalari elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi qariyb 10 foizni tashkil etmoqda. Bu borada O'zbekiston 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatini 27 gigavattga yetkazib, elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmini kamida 40 foizga olib chiqishni maqsad qilgan. Bu har yili 25 milliard kub metr tabiiy gazni tejash, atmosferaga zararli tashlanmalarni 34 milliard tonnaga qisqartirish imkonini beradi.

(Davomi 2-3-betlarda).



# O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik to'rtinchi yalpi majlisi to'g'risida AXBOROT

(Davomi. Boshi 1-betda).

Albatta, belgilangan ko'rsatkichlarga erishish, energetik barqarorlikni ta'minlash uchun sohaning huquqiy bazasini mustahkamlash talab etiladi.

Boz ustiga, uglevododor resurslarining chegaralanganligi, ularning kamayishi energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish choralarini ko'rish zarurati yuzaga keltirmoqda.

Shu bilan birga, amalda mamlakatimizda energiya resurslari iste'moli samaradorligini, energiya sarfi me'yori bilan hamda energiya audit o'tkazishni monitoring qilishning ta'sirchan tizimi mavjud emas.

Davlat muassasalari va tashkilotlarida zamonaviy energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, energiya samaradorligini oshirish bo'yicha energiya servis xizmatlari yo'qligi, shuningdek, tejash va samaradorlikni oshirish yo'nalishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish ishlari sust borayotgani ham bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Qonun energetika sohasida sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, sohaga xorijiy va xususiy investitsiyalar jalb etishni ko'paytirish, narx shakllanishining erkin va shaffof mexanizmlarini joriy qilishga asoslangan elektr energiyasining ulgurji va chakana bozorlarini tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qonunda energetika xavfsizligini ta'minlash, energiyani tejash hamda samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish tartib-tamoyillari, elektr va issiqlik energiyasi, yoqilg'i va noan'anaviy energiya resurslaridan iqtisodiyot tarmoqlari hamda ijtimoiy sohada tejami, samarali foydalanish vazifalari va qoidalarini belgilab berilmoqda.

Shuningdek, energiyani tejash va energiya samaradorlik talablarini buzganlik hamda resurslarni me'yordan ortiqcha sarflagani uchun javobgarlikni belgilash ham nazarda tutilgan.

Qurilish va transport sohasida, bino hamda inshootlarda, issiqlik ta'minoti va kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarida, qishloq va suv xo'jaligida energiyani tejash hamda energiya samaradorligini oshirish yo'nalishlari ko'zda tutilmoqda.

Senatorlarning fikricha, mazkur qonun qabul qilinishi energiya resurslari xarajatlarini yanada optimallashtirishga xizmat qilib, energiya iste'moli samaradorligi tizimlari monitoringini amalga oshirish uchun huquqiy poydevor yaratadi.

Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

So'ngra "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, qonunning asosiy maqsadi ma'muriy aktlarni qabul qilish, o'zgartirish, ijro etish va bekor qilishga qaratilgan ma'muriy tartib-taomillarni amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratligi aniq qilib belgilanib, vazifalari tushunarli tarzda bayon etilmoqda.

Shuningdek, ushbu qonunning qo'llaniladigan sohasi kengaytirilib, Qonun soliqlik, bojxona, davlat nazorati va tekshiruv, fuqarolarning pensiya ta'minoti, harbiy ro'yxatga olish va harbiy xizmatga chaqirish, shaharsozlik jihatidan rejalashtirish, yer uchastkalarini ajratish va olib qo'yish kabi tartib-taomillarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanmoqda.

Qonun o'zbohshimchaligi va vakolatning suiste'mol qilinishini taqiqlash, huquqni qo'llashni rad etishga yo'l qo'ymasligi kabi yangi prinsiplar bilan boyitilib, unda amaldagi prinsiplarga aniq va to'liq ta'riflar berilmoqda.

Mazkur qonunning qabul qilinishi jismoniy va yuridik shaxslar bilan davlat organlari o'rtasidagi munosabatlarni aniq belgilashga, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlariga davlat organlari xodimlari tomonidan yetkazilishi mumkin bo'lgan noqonuniy xatti-harakatlardan himoya qilishga, ma'muriy tartib-taomillarning yagona mexanizmi yaratilishiga xizmat qiladi.

Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Yalpi majlisda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan va suv resurslaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hajmlarini oshirish, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ikkilamchi ijaraga berish imkoniyatlarini kengaytirish, pillachilik va tutchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklariga, agrosanoat klasterlariga va boshqa yuridik shaxslarga yer uchastkalarini

ajratilishining huquqiy asoslarini belgilash, shuningdek, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar tomonidan yerlardan foydalanish shartlarini qayta ko'rib chiqish zarurati mavjuddir.

Ushbu hujjat bilan O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga hamda "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarining dala chetlaridagi kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlari o'n yilgacha bo'lgan muddatga ikkilamchi ijaraga berilishi mumkinligini, shuningdek, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar tomonidan mazkur yer uchastkalarida hamda bog'lar va tokzorlarning qator oralariga maqbul ekinlar ekilishini yoki tut ko'chatlari o'tqazilishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga pillachilik va tutchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklariga, agrosanoat klasterlariga va boshqa yuridik shaxslarga maydoni o'n gektargacha bo'lgan yer uchastkalarini ajratilishi mumkinligi to'g'risidagi qo'shimcha kiritilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan

ko'ra bekor qilinganda moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha kafolatlarni belgilash, mehnat shartnomasi bekor qilingan taqdirda, ish qidirish davrida o'rtacha oylik ish haqining ishdan bo'shatish nafaqasi hisobga olingan holda biroq ko'pi bilan ikki oyga saqlanib qolishi xodimlar uchun kafolatlarni nazarda tutilmoqda.

Qonunda ishdan va ish haqi (mehnat daromadi)dan mahrum bo'lgan shaxslarga ishsizlik nafaqasi miqdorini belgilash shartlariga aniqlik kiritilib, ishsizlik nafaqasini to'lashni tugatish va to'xtatib turish tartiblari takomillashtirilmoqda.

Bundan tashqari, haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etiladigan shaxslar bilan bunday ishlarda ishtirok etish uchun mehnat shartnomasi muddatini o'n bir oygacha bo'lgan muddatga tuzish asoslari, ishsiz shaxslarga stipendiya to'lash shartlari belgilanmoqda hamda Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari takomillashtirilmoqda.

Hujjatda ishsiz shaxslarga kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash yoki malaka oshirish davrida Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'larini hisobidan stipendiyalarni to'lash mezonlari aniq belgilanmoqda.

Ta'kidlanganidek, mazkur qonunning qabul qilinishi ishga joylashtirish bo'yicha aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar samaradorligini oshirishga, ishga

tadbirlarni yanada kuchaytirish lozimligi yuzasidan tavsiyalar yuborilgan.

Senat yalpi majlisida muhokama qilingan qonunga kiritilayotgan yangi normalar bugungi kunda olib borilgan hamkorlikdagi umumiy sa'y-harakatlarning amaliy natijasidir.

Qonunning ma'qullanishi jamoat xavfsizligini ta'minlash va pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi holatlarining oldini olish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Senatning ellik to'rtinchi yalpi majlisida "Shaharsozlik faoliyati sohasidagi davlat boshqaruvi va aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimi takomillashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Faol fikr va takliflar almashinuvi tarzida o'tgan qonun muhokamasida tez o'zgaruvchan voqeikka moslasha oladigan, shaharlar va aholi punktlari rivojlanishini samarali boshqarishni ta'minlaydigan moslashuvchan va dinamik shaharsozlik tizimini yaratish zarurligiga alohida e'tibor qaratildi.

Qayd etilganidek, qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksiga Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining nomini va vakolatlarini

hamda xalqaro kuryerlik jo'natmalarini yetkazib berish bo'yicha faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabardor qilmaslik uchun BHMning 20 baravari miqdorida jarima qo'llash belgilanmoqda.

Qonunning qabul qilinishi xalqaro kuryerlik jo'natmalarini yetkazib berish va bojxona brokeri sifatida faoliyatni amalga oshirishda mavjud qoidabuzarliklarning oldini olishga xizmat qilishi senatorlar tomonidan alohida qayd etildi.

Muzokaralardan so'ng qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shundan keyin "Fitosanitariya talablari yangillashtirilishi munosabati bilan "O'simliklar karantini to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish haqida"gi qonun muhokama qilindi.

Qonun bilan fitosanitariya sertifikatini yoki guvohnomasini olish talab etilmaydigan karantini ostidagi mahsulotlarni olib kirishda eksport qiluvchi xorijiy mamlakatlarning fitosanitariya sertifikatini yoki guvohnomasini talab etish bekor qilinmoqda.

Shu bilan birga, qonunda O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tomonidan karantini ostidagi mahsulotning har bir turkumiga alohida-alohida beriladigan karantini ruxsatnomasi mavjud bo'lgan taqdirda, xorijiy mamlakatlardan karantini ostidagi mahsulotlarni olib kirishga yo'l qo'yilishi mustahkamlanmoqda.

Qonunga kiritilayotgan ushbu qo'shimcha va o'zgartirish o'simliklar karantini qoidalarini hamda fitosanitariya talablarini yangillashtiradi.

Senatorlarning ta'kidlashicha, ushbu yangiliklar ichki bozorlarda asosiy turdagi mahsulotlar narxining barqarorligini ta'minlashga, import hisobidan qoplanadigan aholining iste'mol talabi yuqori bo'lgan mahsulotlarni olib kirishda tadbirkorlik subyektlariga imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Senatning ellik to'rtinchi yalpi majlisida "Ma'muriy islohotlar doirasida ta'lim sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ham ko'rib chiqildi.

Ma'lumki, keyingi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar, maktabgacha va maktab ta'limi sohasida davlat boshqaruvi tizimi takomillashtirildi, ushbu sohadagi bir qator respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.

Ayni vaqtda bir qator respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining ma'muriy islohotlar doirasida transformatsiya qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifati nazorat qilish davlat inspeksiyasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi funksiyalari va vazifalarining alohida vazirliklarga o'tkazilishi, shuningdek, Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalari qo'llab-quvvatlash jamg'armasining qayta tashkil etilishi ularning rasmiy nomlanishini va vakolatlarini aniqlashtirish uchun qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilishini talab etmoqda.

Mazkur qonun bilan bir qator qonun hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligining nomlanishi va vakolatlari, shuningdek, IIm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasining nomlanishi aniqlashtirilishini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Bundan tashqari, "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'rta maxsus, professional, oliy ta'limni hamda oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashqi baholashning yangi tizimi joriy etilishini, kadrlarning malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlashni, shuningdek, nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sohasidagi faoliyatni litseiziyalash bo'yicha vakolatlar O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi o'rtasida taqsimlanishini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Senatorlar ta'kidlaganidek, ushbu qonun oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar, maktabgacha va maktab ta'limi sohasidagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining yaxlit tizimini shakllantirishga, shuningdek, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan ko'rsatilayotgan

ta'lim xizmatlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

So'ngra "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama markazida bo'ldi.

Ta'kidlanganidek, hozirda kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi hayvonlar va o'simliklar turlari soni ortib bormoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga 2009-yilda 184 ta hayvon va 304 ta o'simlik turlari kiritilgan bo'lsa, 2019-yilga kelib ushbu ko'rsatkich mos ravishda 206 (+22) hamda 314 (+10) tani tashkil etgan.

Mazkur qonun bilan qator qonunlarga mamlakatimizning Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar hamda yovvoyi hayvonlar turlarini muhofaza qilishni yanada kuchaytirish hamda ularni tabiiy muhitdan ajratib olishni cheklashga oid o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Xususan, Qizil kitobga kiritilgan kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi holda o'suvchi o'simlik turlarini saqlab qolish va muhofaza qilish uchun ularning o'sish muhiti bo'lgan joylarda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etilishi hamda ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirish maqsadida ularni tabiiy muhitdan ajratib olgan holda foydalanilishi mumkinligi ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining xulosasi inobatga olingan holda, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan kiritiladigan takliflar asosida Vazirlar Mahkamasi tomonidan Qizil kitobga kiritilgan, kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning hamda yovvoyi hayvonlarning ayrim turlarini va ularning qismlarini tabiiy muhitdan ajratib olishga doir ruxsatnomalarni berish cheklanishi, cheklavlarning asoslari, ularning amal qilish muddati belgilanishi ko'rsatib o'tilmoqda.

Bundan tashqari, ekologiya va o'rmon xo'jaligi sohasidagi davlat organlarining vakolatlari aniqlashtirilmoqda. Qonun va kodekslardagi oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq tushunchalarni "Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni normalariga muvofiqlashtirilmoqda.

Qayd etilganidek, mazkur qonunning qabul qilinishi ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvining samarali tashkil etilishini ta'minlashga, Qizil kitobga kiritilgan kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar hamda yovvoyi hayvonlar turlarining o'sish va yashash muhiti sharoitlari yaxshilanishiga hamda kommunal xizmat ko'rsatish sohasida huquqni qo'llash amaliyotining birxilligi ta'minlanishiga, mamlakatimizda ekologik barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Yalpi majlisda "Huquqbuzarliklar va jinoyatlarining oldini olish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi"gi qonun ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, huquq-tartibotni ta'minlashda ijobiy natijalarga hamda krimingogen vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga erishilmoqda.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida aniq manzilga yo'naltirilgan chora-tadbirlar belgilanishi, ushbu masalaga kompleks yondashgan holda huquqbuzarliklarning tizimli ravishda sodir etilishiga doir sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy ishlarning yo'lga qo'yilishi muhim hisoblanadi.

Ta'kidlanganidek, qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga sog'liqling qisqa muddatga yomonlashuvga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo'lmagan muddatga yo'qolishiga olib kelmagan qasddan badanga yengil shikast yetkazish bilan bog'liq jinoyi qilmishini jinoyi jazo tarkibidan chiqarib, uni ma'muriy huquqbuzarlik toifasiga o'tkazishni, yarashuv institutiga kiruvchi ma'muriy huquqbuzarliklar doirasini kengaytirishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Senatorlar mazkur qonun aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlashga, mamlakatimizda krimingogen vaziyatning yaxshilanishiga hamda ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha yarashuv institutining ta'sir etish doirasini kengaytirishga xizmat qilishini ta'kidladi.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

(Davomi 3-betda).



nazorat qilish inspeksiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi organlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga doir vakolatlari belgilanmoqda.

Senatorlar fikricha, ushbu qonun yer uchastkalaridan samarali foydalanish hamda pillachilik va tutchilikni yanada rivojlantirish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish imkoniyatlarini kengaytirishga, shuningdek, yer uchastkalarida va suv resurslaridan foydalanishda qonun ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Senatorlar tomonidan "Aholi bandligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun muhokama qilindi.

Ushbu hujjat bilan sohada ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida ish beruvchining bo'sh ish o'rinlari mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron shaklda yuborish shartlari belgilanmoqda.

Shuningdek, qonunda xodimlarni ommaviy ravishda ishdan bo'shatish mezonlari aniq belgilab berilayotganligi hamda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi bilan o'zaro muvofiqlashtirilayotganligi kelgusida ishchilarni ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Qonunda bandlikni rag'batlantirish va aholini tadbirkorlikka jalb etish uchun subsidiyalarni taqsimlash va idoralarning mablag'larini hisobidan ko'rsatilayotgan moliyaviy yordamlar, ya'ni subsidiyalarning ularning maqsadli jamg'armalari hisobidan amalga oshirilishi nazarda tutilib, ssuda ajratish yoki rad etishning asoslari belgilab qo'yilmoqda.

Ish qidirayotgan shaxslarni ro'yxatga olish tartibi soddalashtirilmoqda. Unga ko'ra ish qidirayotgan shaxslarning ish staji, ma'lumoti (mavjud bo'lgan taqdirda), ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlar mahalliy mehnat organi tomonidan mas'ul davlat organlari va tashkilotlardan mustaqil ravishda, shu jumladan, "Raqamli hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali so'rab olinishi belgilanmoqda.

Qonunda ishga joylashtirishga doir yo'llanmalar va ishga joylashishga ko'maklashish yuzasidan murojaatnomalar asosida ish qidirayotgan shaxslarni ishga joylashtirish tartibi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun talablariga muvofiqlashtirilmoqda.

Bundan tashqari, qonun asosida mehnat shartnomasi alohida asoslarga

joylashtirish bo'yicha murojaat qilayotgan fuqarolarning ortiqcha o'voragarchiligiga chek qo'yish hamda aholining davlat organlariga nisbatan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shundan so'ng "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi, shu jumladan, pirotexnika buyumlari qonunga xilof muomalasining oldini olish bo'yicha tadbirlar samaradorligini oshirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2021 - 2023-yillarda 239 ta holatda mamlakatimiz hududiga qiymati qariyb 2 milliard so'mlik 300 mingdan ortiq pirotexnika buyumlarini noqonuniy olib kirish holatlarining oldi olingan.

Shu bilan birga, fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish maqsadida pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi bilan bog'liq ma'muriy javobgarlik choralarini kuchaytirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ushbu qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga pirotexnika buyumlarining qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, saqlash, ularning tashqariga, jo'natganlik va O'zbekiston Respublikasidan olib chiqarish, shuningdek, pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda o'tkazganlik yoki O'zbekiston Respublikasiga olib kirilgan uchun mazkur huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasidan kelib chiqqan holda javobgarlik choralarini kuchaytirilishini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Qayd etilganidek, Oliy Majlis Senati ham pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, saqlash, ularning foydalanish, xuddi shuningdek, ularni qonunga xilof ravishda mamlakatimizga olib kirish yoki o'tkazish bilan bog'liq salbiy holatlarining oldini olish yuzasidan doimiy shug'ullanib kelmoqda.

Jumladan, Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi tomonidan ushbu salbiy holatlarning oldini olish bo'yicha mas'ul tuzilmalarga senator so'rovi ham yuborilib, tegishli javoblar olingan. Qo'mita tomonidan Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlariga mamlakatimiz hududlariga qo'shni davlatlardan chegarani buzgan holda pirotexnika vositalarini olib o'tish holatlarining oldini olish bo'yicha profilaktik

aniqlashtirishni, shuningdek, respublika hududini rivojlantirishni rejalashtirish bosh tarhini hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar hududlarini rivojlantirishni rejalashtirish tarhlarini ishlab chiqish yo'lli bilan aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini tayyorlash tizimini takomillashtirishni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Shaharlarning bosh rejalarini soddalashtirilgan shaklda ishlab chiqishda buyurtmachiga va loyiha tashkilotlariga loyihalashtirish uchun topshiriqlar berish me'yori belgilanmoqda.

Ta'kidlanganidek, qonunda ko'zda tutilgan o'zgartirishlar Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar hududlarini rivojlantirishning rejalashtirish sxemalarini yaratish orqali alohida hududlarni, ularning o'ziga xosligi va salohiyatini hisobga olgan holda rivojlantirishning yanada aniq rejalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Eng muhimi, taklif etilayotgan o'zgartirishlar fuqarolar uchun iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sharoitni saqlagan holda shaharlar va aholi punktlarining barqaror va mutanosib rivojlanishini ta'minlaydi.

Senatorlarning fikricha, mazkur qonun O'zbekistonda yanada samarali va shaffof shaharsozlik tizimini yaratish hamda har bir fuqaroga ega bo'lishi mumkin bo'lgan zamonaviy hududlarni barpo etishga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

So'ngra yalpi majlisda "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga bojxona brokeri faoliyatini hamda xalqaro kuryerlik jo'natmalarini yetkazib berish bo'yicha faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Mazkur qonun bilan bojxona brokeri faoliyati hamda xalqaro kuryerlik jo'natmalarini sohasi tartibga solinmoqda.

Xususan, "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi qon

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining  
ellik to'rtinchi yalpi majlisi to'g'risida

## AXBOROT

(Davomi. Boshlanishi 1-2-betlarda).

Senatning yalpi majlisi kun tartibiga muvofiq parlament nazorati doirasida Toshkent shahrida tadbirkorlikni rivojlantirish va ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan amalga oshirilgan ishlar muhokama qilindi.

Poytaxtimizda tadbirkorlikni rivojlantirish va ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha qator ijobiy natijalarga erishilgani qayd etildi.

Xususan, Toshkent shahrida 2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 135,1 mingtani tashkil etib, mazkur tadbirkorlik subyektlarning asosiy qismi, ya'ni 33 foizi savdo, 13 foizi sanoat, 9 foizi qurilish sohasiga to'g'ri kelgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan joriy yilning o'tgan choragida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 9,5 trillion so'mni, qurilish ishlari 5,9 trillion so'mni, chakana savdoning tovar aylanmasidagi hajmi 11,3 trillion so'mni va xizmatlar hajmi 20 trillion so'mni tashkil etgan.

Oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida 2024-yilning o'tgan 6 oyida shahar bo'yicha mingdan ortiq jismoniy va yuridik shaxslarga 17,4 milliard so'm imtiyozli kreditlar ajratilgan.

Ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan "Yashil makon" umummilliy loyihasining bahorgi ko'chat ekish mavsumi doirasida Toshkent shahrida 700 ming donaga yaqin manzarali, mevali daraxt, buta ko'chatlari va qalamchalar ekilgan. Shuningdek, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 12 ta tuman hokimliklari tomonidan 20,47 gektar maydonda 26 ta hokimlik yashil bog'lari, har bir tumanda "Kashkan ko'chasi", "Chinor ko'chasi", "Eman ko'chasi", "Lola daraxti ko'chasi" kabi namunaviy ko'chalar tashkil etilgan.

Chiqindilarni boshqarish bo'yicha Toshkent shahrida mavjud 585 ta MFY to'liq sanitar xizmat ko'rsatish bo'yicha qamrab olingan. Shaharda umumiy hisobda mart oyigacha 363,2 ming kub metr aholidan qattiq maishiy chiqindilar olib chiqib ketilgan.

Joriy yilning o'tgan davrida shaharda yangi qurilayotgan hamda faoliyat olib borayotgan sanoat va boshqa ishlab chiqarish korxonalariga jami 1 057 ta davlat ekologik ekspertizasining xulosalari taqdim qilingan.

Shuningdek, o'rganish jarayonida amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda ayrim kamchilik va muammolar ham mavjudligi aniqlandi.

Xususan, majlisda ta'kidlanganidek, shaharda 2023-yil yakuni bilan 327 ta hududiy korxonada 10,2 trillion so'mlik zarar bilan yakunlangan.

Shu bilan birga, Mirzo Ulug'bek tumanidagi ishlab chiqarish korxonalaridan iborat kichik sanoat zonasida muntazam

ravishda elektr va gaz ta'minotida muammolar mavjudligi, Yakkasaroy tumanida esa Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasini tashkil qilish bo'yicha ishlar to'liq amalga oshirilmagan, Yashnobod tumanida 28 ta lotdan iborat Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasini tashkil qilingan bo'lsa-da, biroq bugungi kunda 28 ta lotdan faqat 12 tasi auktsion orqali sotilgani ko'rsatib o'tildi.

"Tadbirkor virtual ofisi" axborot portali orqali kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi va muddati ustidan nazorat o'rnatilgan bo'lishiga qaramasdan murojaatlarning 29 foizini (106 ta) ko'rib chiqish muddatlari buzilgan.

Bundan tashqari, respublika miqyosida atmosferaga yiliga 2 million 200 ming tonnadan ziyod ifloslantiruvchi moddalar chiqarilayotgan bo'lib, Toshkent shahrida



Akmal MUHAMMADOV o'lgan suratlari.

havodagi ifloslantiruvchi moddalar miqdori qariyb 420 ming tonnani tashkil etgan. Hududlardagi ayrim korxonalarda haligacha 10 yildan ortiq ishlatilayotgan chang-gaz tozalash uskunalari modernizatsiya qilinmagan.

Joriy yilning o'tgan davri davomida daraxtlarning noqonuniy kesilishi bilan bog'liq 87 ta holat aniqlanib, tabiatga jami 817,3 million so'm zarar yetkazilgan. Shahardagi oqova suv tozalash inshootlari samaradorligi past bo'lib, Salar va Bo'zsuvs inshootlarida 72 foizni, Bektemir inshootida 53 foizni tashkil qiladi xolos.

Senatorlar tomonidan shaharda tadbirkorlikni rivojlantirish va ekologik vaziyatni yaxshilashda yo'l qo'yilgan kamchiliklar mas'ul vazirlik va idoralarga ko'rsatib o'tildi hamda ishlabarmonlik muhitini yaxshilashga, ekologiya sohasida mavjud talablar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan zarur choralar ko'rish yuzasidan takliflar bildirildi.

Xususan, korxonalarini

sog'lomlashtirishga qaratilgan choralarini belgilash, kichik sanoat zonasini va yoshlar sanoat zonalarini muhandislik ta'minotini yaxshilash orqali tadbirkorlikni rivojlantirish, "Yashil makon" umummilliy loyihasi asosida ishlarini tashkil etish, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha choralarini ko'rish lozimligi qayd etildi.

Ko'rib chiqilgan masala yuzasidan Oliy Majlis Senatining tegishli qarori qabul qilindi. Senatning yalpi majlisida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning sifat tarkibini yaxshilash, o'simlik va hayvonot dunyosini asrash hamda kadastrini yuritish holati yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga yuborilgan parlament so'rovi natijalari ko'rib chiqildi.

Parlament so'roviga berilgan javob orqali respublikamizda o'ziga xos, noyob, qimmatli tabiiy obyektlar va majmualarni,

METHda hayvonot va o'simlik dunyosi kontrabandasi, noqonuniy ovchilik, o'simliklarning noqonuniy kesilishining oldini olish maqsadida manfaatdor vazirlik va idoralardan hamkorlikda nazorat tadbirlari o'tkazilgan.

O'simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini hisobga olish va monitoring qilish bo'yicha smart monitoring tizimi joriy etilib, kadastr ma'lumotlarini to'plash hamda shakllantirish va tahlil qilish ishlari yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, Davlat kadastrlari yagona tizimi Milliy geografik axborot tizimiga integratsiya qilingan. METHda 500 dan ortiq fotoqopqon o'rnatilib, yovvoyi hayvonlar hisobi va monitoringi yuritilmoqda.

METH birlamchi yong'inga qarshi kurashish vositalari bilan ta'minlangan, yong'inga qarshi yo'llar ta'mirlanib, mineralashtirilgan yo'laklar barpo etilgan.

Biotehnika tadbirlari uchun 693 ta nuqtada omixta yem oxurlari, 92 ta nuqtada sun'iy suvloqlar, 500 dan ortiq tuzloqlar va qo'shimcha oziqlantirish maskanlari tashkil etilgan.

METHda ilmiy tadqiqotlar olib borishni qo'llab-quvvatlash maqsadida maxsus transport vositalari, laboratoriya jihozlari, elektron mikroskoplar, fotoqopqonlar va boshqa texnik anjomlar xarid qilingan.

METHga antropogen omillar ta'sirini kamaytirish maqsadida qator qo'riqxonalariga tutash hududlarda qo'riqlanma (bufer) zonalar tashkil qilingan.

O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi hayvon va o'simliklar turlarini muhofaza qilish hamda takror ko'paytirish maqsadida Buxoro bug'usi parvarishxonalarini, Qizilqum arxari parvarishxonasi hamda ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomniklari tashkil qilingan.

Sohada huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida 2023-yil davomida ikki mingga yaqin nazorat reytd tadbirlari amalga oshirilgan. METHga tutash hududlarda istiqomat qiladigan aholi o'rtasida profilaktik tushuntirish ishlari olib borilgan.

Qayd etilganidek, parlament so'rovi javobi tahlillari va o'tkazilgan o'rganishlar ayrim masalalar hamon dolzarbligicha qolayotganini ko'rsatmoqda.

Jumladan, METHda biotexnik tadbirlarga mablag'lar mahalliy budjet hisobidan moliyalashtirishi lozim bo'lsa-da, ayrim holatlarda ular tomonidan yetarli mablag' ajratilmay qolmoqda.

Hududlar xususiyatlarini, tabiiy majmualar va hududiy farqlarni hisobga olgan holda ekologik indikatorlarni ishlab chiqish lozim.

Noqonuniy chorva mollari boqilishi, yerlarning o'zboshimchalik bilan egallab olinishi va boshqa salbiy omillar sababli

METHning biologik xilmaxilligi qisqarishi, umumiy biomassasi siyraklashishi davom etmoqda.

METH yer maydonlarini sanoat va boshqa maqsadlar uchun zaxiraga qaytarishga harakatlar kuchayib bormoqda.

Yalpi majlisda yuqorida qayd etilgan muammolarni hal qilish, shuningdek, ma'lum vaqt talab etadigan va doimiy nazorat lozim bo'lgan ayrim masalalar parlament nazoratida qolishi qayd etildi.

Muhokamadan so'ng Senatning tegishli qarori qabul qilindi.

Bundan tashqari, o'zini o'zi band qilish tartibida mehnat faoliyatini amalga oshirishning ayrim masalalari yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga parlament so'rovi yuborish masalasi ham muhokama qilindi.

2020-yilda aholini tadbirkorlik faoliyatiga yanada keng jalb qilish va qonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida mamlakatimizda o'zini o'zi band qilish instituti joriy etildi.

Senatning Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tomonidan aholining murojaatlaridan kelib chiqib, o'zini o'zi band qilish, xususan, fuqarolar tomonidan ijtimoiy soliq to'lash orqali pensiya uchun zarur mehnat stajini hisobga olish borasidagi ishlar holati o'rganildi.

O'zini o'zi band qilish tizimi "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonun, Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solinishi soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa normativ hujjatlar bilan tartibga solingan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan 100 dan ziyod faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari mavjud.

Soliq kodeksiga muvofiq o'zini o'zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlari jismoniy shaxslar jami daromadlari tarkibiga kiritilmaydi.

Soliq kodeksining 408-moddasiga asosan o'zini o'zi band qilgan shaxslarning mehnat stajini hisoblab chiqarish uchun yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida ijtimoiy soliq ixtiyoriy ravishda to'lanadi. Shuningdek, ushbu moddaga ko'ra o'zini o'zi band qilgan shaxslar ijtimoiy soliq to'lovini hisobot yilining 1-dekabrighacha amalga oshiradi.

Joriy yilning 6 oyi davomida o'zini o'zi band qilgan shaxslar soni oshdi.

Aholining murojaatlari va tahlillar tizimida ba'zi muammolar borligini ko'rsatdi. Xususan, 2020 - 2023-yillarda ro'yatga olinganlarning faqatgina 13 foizi ijtimoiy soliq to'lovini amalga oshirgan.

Shuningdek, 2023-yilda aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi mablag'lari hisobidan "ayollar daftari" hamda "yoshlar daftari"ga kiritilgan 65 mingga yaqin fuqarolarga o'zini o'zi band qilish uchun davlat tomonidan moliyaviy ko'mak, ya'ni 313 milliard so'm subsidiya ajratilgan bo'lib, daromad olish manbai yaratilgan bo'lsa-da, ushbu fuqarolar tomonidan ijtimoiy soliq to'lovi darajasi pastligicha qolmoqda.

Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, o'zini o'zi band qilgan fuqarolar tomonidan ijtimoiy soliq to'lmaslik kelajakda ularning ijtimoiy himoyalaniishi holati pasayishiga, ya'ni yoshga doir pensiya olish huquqidan mahrum bo'lishiga olib keladi.

O'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam miqdorda soliq to'langan hollarda ularga tegishli yil uchun mehnat staji hisoblanmayapti va ayni paytda to'langan summani soliq to'lovchiga qaytarish amaliyoti ham yo'lga qo'yilmagan.

Norasmiy mehnat nafaqat mamlakat iqtisodiyotiga jiddiy salbiy ta'sir etadi, balki inson hayoti va sog'lig'ini xavf ostiga qo'yadi, qariganda yoki mehnatga layoqatsiz bo'lib qolganida ijtimoiy himoyasiz qoldiradi.

Ma'lumki, Soliq kodeksining

408-moddasiga binoan o'zini o'zi band qilgan shaxslar hisobot yilining 1-dekabrighacha to'lovni amalga oshirishi belgilangan. Amalda mazkur sanadan keyin (1 - 31-dekabr oralig'ida) soliq to'lagan shaxslarga tegishli yil uchun mehnat staji hisoblanmagan.

Vazirlar Mahkamasiga yuborilayotgan parlament so'roviga aholini qiyonayotgan masalalarga yechim topish, qonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar, o'zini o'zi band qilgan shaxslarga qulaylik yaratish so'ralmoqda.

Muhokama so'ngida Senatning tegishli qarori qabul qilindi.

Oliy Majlis Senatining ellik to'rtinchi yalpi majlisida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qarorlarini tasdiqlash to'g'risidagi masala ham ko'rib chiqildi va tegishli qaror qabul qilindi.

Yalpi majlisda jamiyat hayotining barcha sohasi huquqiy asoslarini mustahkamlashga va mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar samaradorligini oshirishga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 18 ta masala, shu jumladan, 14 ta qonun muhokama qilindi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik to'rtinchi yalpi majlisi o'z ishini yakunladi.

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy Majlisi SenatiQonunchiligimiz davr shiddatiga mos holda  
takomillashtirilmoqda

## Fitosanitariya sertifikatini yoki guvohnomasi bekor qilinadi

Risqul SIDDIQOV,  
Oliy Majlis Senatining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari:

– Bugungi globalashuv davlatlar va xalqlarning o'zaro aloqalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada o'zaro bordi-keldi va savdo-sotiqlar keng rivojlanayotir. Bu jarayonda ilgari qonunchilikda belgilab qo'yilgan ayrim cheklavlarni olib tashlamaslik esa aloqalarga salbiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

Yalpi majlisda ko'rilgan "Fitosanitariya talablari yengillashtirilishi munosabati bilan "O'simliklar karantini to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish haqida"gi qonun ana shunday hayotiy zarurat tufayli ishlab chiqilgan.

Qonun bilan fitosanitariya sertifikatini yoki guvohnomasini olish talab etilmaydigan karantini ostidagi mahsulotlarni olib kirishda eksport qiluvchi xorijiy mamlakatlar fitosanitariya sertifikatini yoki guvohnomasini talab etish bekor qilinmoqda.

Ayni chog'da O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tomonidan karantini ostidagi mahsulotning har bir turkumiga alohida beriladigan karantini ruxsatnomasi bo'lgan taqdirda, chet mamlakatlardan karantini ostidagi mahsulotlarni olib kirishga yo'l qo'yilishi belgilanayotir.

Albatta, bu singari yangiliklar o'simliklar karantini qoidalari hamda fitosanitariya talablarini yengillashtirishda qo'l keladi.

Yo'qolib borayotgan hayvon va o'simliklar turlari  
ortayotgani achinarli

Boriy ALIXONOV,  
Oliy Majlis Senatining Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi:

– Bugun kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi hayvonlar va o'simliklar turlari ortib borayotgani, albatta, achinarlidir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga 2009-yilda 184 ta hayvon va 304 ta o'simlik turlari kiritilgan bo'lsa, 2019-yilga kelib ushbu ko'rsatkich mos ravishda 206 hamda 314 tani tashkil etgan.

Yalpi majlisda ko'rilgan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun bilan qator qonunlarga

mamlakatimiz Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar, yovvoyi hayvonlar turlarini muhofaza qilishni yanada kuchaytirish, ularni tabiiy muhitdan ajratib olishni cheklashga oid o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilayotganini aytish zarur. Ularni munosib tarzda himoyalash maqsadida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil qilish, ilmiy tadqiqot ishlari uchun ularni tabiiy muhitdan ajratib olingan holda foydalanish mumkin bo'ldi. Ammo

Vazirlar Mahkamasiga tomonidan Qizil kitobga kiritilgan, kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar hamda yovvoyi hayvonlarning ayrim turlarini va ularning qismlarini tabiiy muhitdan ajratib olishga doir ruxsatnomalarni berish cheklanmoqda. Shundan kelib chiqib qonunda bu kabi cheklavlarning asoslari, ularning amal qilish muddati ko'rsatib berilayotir.

Mazkur qonun Qizil kitobga kiritilgan kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar hamda yovvoyi hayvonlar turlarining o'shish va yashash muhiti sharoiti yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Agrim xatti-harakatlar  
jinoiy jazo tarkibidan  
chiqariladi

Narimon UMAROV,  
Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi:

– Keyingi davrda yurtimizda olib borilayotgan izchil sa'y-harakatlar bois huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda huquq-tartibotni ta'minlash yo'nalishida ijobiy natijalarga erishilmoqda. Ammo hozirgi davrda ana shu yutuqlarning o'zi bilan kifoyalanib qolish sira mumkin emas. Xususan, ushbu yo'nalishning huquqiy asosini takomillashtirib borish g'oyat muhim.

Senatorlar tomonidan ma'qullangan "Huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi"gi qonun ham shu bois ishlab chiqildi.

Ushbu qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shilgan qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyati uncha uzoq bo'lmagan muddatga yo'qolishiga olib kelmagan qasddan badanga yengil shikast yetkazish bilan bog'liq qilmish jinoiy jazo tarkibidan chiqarilib, u ma'muriy huquqbuzarliklar toifasiga o'tkazilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, yarashuv institutiga kiruvchi ma'muriy huquqbuzarliklar doirasi kengaytirilishini ham anglatadi.

"Xalq so'zi".

HOKIMLARING MAHALLIY KENGASH OLDIDAGI MAS'ULIYATI  
VA HISOBDO RLIGI KUCHAYTIRILADI

Mamlakatimizda keyingi yillarda xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining ijtimoiy muhofazasiga oid dolzarb masalalarni hal qilish bo'yicha vakolatlari kengaytirilib, xalq hokimiyatligini to'laqonli ro'yobga chiqarish borasidagi islohotlar izchil davom etmoqda. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda xalq deputatlari Kengashiga uning deputatlari orasidan qonunga muvofiq saylanadigan rais boshchilik qilishi, viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o'zida Kengash raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi mustahkamlab qo'yildi. Galdagi ustuvor vazifa esa mahalliy ijro etuvchi va vakillik hokimiyatining bo'linishi prinsipiga oid konstitutsiyaviy kafolatlarni qonunchilikda aks ettirish masalasi edi.

## Yangi qonun loyihasi

Shundan kelib chiqib, bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mahalliy davlat hokimiyatining konstitutsiyaviy asoslari takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, kuni kecha quyi palatada birinchi o'qishda qabul qilindi.

Mazkur qonun loyihasi bilan amaldagi qonun hujjatlariga qator

muhim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etilmoqda.

Birinchi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq, viloyat, tuman, shahar hokimi bir vaqtda tegishli hududdagi vakillik hokimiyatini boshqarishi vakolati bekor qilinib, faqat viloyat, tuman va shaharning ijro etuvchi hokimiyatiga boshchilik qilishi nazarda tutilmoqda.

Ikkinchi, viloyat, tuman, shahar hokimlari nomzodlari tegishli xalq deputatlari Kengashlarida ko'rib chiqilayotganda hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolga

mo'ljallangan dasturini taqdim etishi haqidagi yangi norma kiritilmoqda.

Uchinchi, ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq tegishli bir viloyat, tuman, shaharning hokimi etib tayinlanishi mumkin emasligi haqidagi yangi norma bilan to'ldirilyapti.

To'rtinchi, viloyat va Toshkent shahar hokimlarining yerga egalik va undan foydalanish huquqiga oid vakolatlari bekor qilinayapti. Yer uchastkalarini doimiy foydalanishga berishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda haqli ekanliklari mustahkamlanmoqda.

Shu bilan birga, qonun loyihasida mahalliy Kengashlarning rolini yanada oshirish, vakillik nazoratining yangi shakllarini joriy qilish, hokimlarning mahalliy Kengash oldidagi mas'uliyati va hisobdorligini kuchaytirishga qaratilgan qator yangi normalar aks etmoqda. Unga ko'ra mahalliy Kengashlar faoliyatiga deputatlar orasidan saylanadigan rais boshchilik qiladi. Shuningdek, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining sessiyalarini chaqirishning soni va muddatlari ham loyihada aks etmoqda. Ya'ni birinchi sessiyaning

ochilishi va unda raislik qilish tartiblari belgilanyapti.

Bundan tashqari, Kengash raisi va saylovda eng ko'p deputatlik o'rnini olgan siyosiy partiya guruhi rahbariga sessiyalarga raislik qilish vakolati taqdim etilmoqda. Mahalliy Kengashlarga hududlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, qoida tariqasida, 5 tagacha (amalda 8 ta) doimiy va muvaqqat komissiyalar tuzish huquqi berilyapti, komissiyalarning vakolatlari ham ko'zda tutilyapti.

Qonun loyihasi bilan mahalliy Kengashlarning vakolat doiralari kengaytirilmoqda. Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) mintaqaviy vakilining, Prezident Xalq qabulxonalarining axborotlarini eshitish, Yoshlar ishlari agentligi hududiy rahbarlarining hisobotini ko'rib chiqish kabilar shular jumlasidandir.

Mahalliy Kengashlarning nazorat tadbirlarini amalga oshirishdagi imkoniyatlarini "Kengash so'rovi" va "Kengash tekshiruvi" kabi ta'sirchan institutlarni joriy etish hisobiga kengaytirish nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, mahalliy Kengash

va hokim qabul qiladigan hujjatlar Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona elektron tizimida (e-qaror.gov.uz) ro'yxatdan o'tkazilishi mustahkamlanyapti.

Yana bir ahamiyatli jihati, ushbu hujjatdagi hokim va mahalliy Kengash raisi vazifalarining ajratilishi bilan bog'liq qoidalar viloyatlar va Toshkent shahrida 2024-yilgi saylovlar yakunlari komissiyalarning vakolatlari ham ko'zda tutilyapti.

Muxtasar aytganda, qonun loyihasi hududlarda hokimiyatlar bo'linishi prinsipini to'laqonli ro'yobga chiqarish, ijro organlari ustidan mahalliy Kengashlar va ular deputatlarining vakillik nazoratini kuchaytirish va ularni xalqning chinakam "ovozi"ga aylantirishda muhim o'rin tutadi. Asosiysi, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar ro'yobga xizmat qiladi.

Inomjon QUDRATOV,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

## Qonunchilik palatasi qo'mitalarida

## Budjet daromadlarini oshirish:

## TALAB VA TAVSIYALAR

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Budget va iqtisodiy masalalar qo'mitasining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Unda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligining "2024-yil ikkinchi choragida Davlat budjeti daromadlari prognozi ijrosining bajarilishi to'g'risida"gi axborotlari eshittildi.

Ta'kidlanganidek, soliq organlari tomonidan shu yilning ikkinchi choragi davomida daromadlar prognozi ijrosi rejaiga nisbatan 101,3 foizga bajarilgan. Xususan, "mahallabay" ishlash institutining samarali tashkil etilishi natijasi bilan bevosita mahalliy budjetlar daromadi bo'lgan mol-mulk solig'i tushumlari 37,6 foizga, yer solig'i 31,2 foizga, suv resurslaridan foydalanish uchun soliq 21 foizga, aylanmadan olinadigan soliq 19 foizga va jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq 18 foizga o'sgan.

O'tgan davra tadbirkorlik subyektlari bojxona to'lovlaridan samarali foydalangan. Ularga bojxona to'lovlarini kechiktirib to'lash imkoniyati taqdim qilingan.

Tadbirida davlat aktivlarini xususiy lashtirish jarayonlari auksion savdolarining sust ketayotgani, bu o'z navbatida, davlat budjetiga tushumlarning tushishiga salbiy ta'sir etayotganiga



alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, joriy yilning yanvar – iyun oylarida xususiy lashtirish dasturlariga muvofiq 5 mingga yaqin aktivlar savdolariga chiqarilib, ularning atigi 1 434 tasi sotilgan.

Bundan tashqari, Bojxona qo'mitasining hududiy boshqarmalariga belgilangan bojxona tushumlarining prognoz reja ijrosi o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan Andijon viloyatida qariyb 5 foizga, Surxondaryo viloyatida

12 foizga, Toshkent viloyatida 9 foizga kam bajarilgan.

Tadbirida deputatlar "yashirin" iqtisodiyotni qisqartirish hisobiga budjet daromadlarini oshirish, soliq

to'lovlarini oldindan undirishga chek qo'yish, samarasiz bojxona va soliq imtiyozlarini kamaytirish, davlat aktivlarini sotish va ijaraga berish auksion tizimni takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi hamda natijadorligini oshirishga qaratilgan o'z taklif va tavsiyalarini berdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

## Ekologik muammolarning yechimlariga qaratilgan tashabbuslar

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ochiq va pragmatik tashqi siyosati, o'zaro munosabatlarni mustahkamlash borasidagi tashabbuslari tufayli so'nggi yillarda qo'shni, yaqin va uzoq mamlakatlar bilan mutlaqo yangi siyosiy va iqtisodiy aloqalar yo'lga qo'yildi. Xalqaro hamkorlikning yangi yo'nalishlari va mexanizmlari joriy etildi.

## Aks sado

Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) ana shunday yangi muloqot maydonlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tashkilotga O'zbekiston 2019-yilda qo'shilgan bo'lib, unga a'zo davlatlar hududi qariyb 4 million kvadrat kilometrni tashkil etadi. TDTga O'zbekiston qo'shilganidan so'ng u nufuzi, salohiyati va ahamiyati jihatdan Yevroosiyo markazidagi yirik tuzilmaga aylandi.

Mazkur tashkilotning asosiy maqsadi – qardosh mamlakatlar o'rtasida ishonch va aloqalarni mustahkamlash, savdo-iqtisodiyot, transport, energetika, turizm va madaniy-gumanitar sohalarida hamkorlikni rivojlantirish, mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishdir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 6-iyul kuni Ozarbayjonning Shusha shahrida Turkiy davlatlar tashkilotining navbatdagi sammitida ishtirok etdi va nutq so'zladi.

Prezidentimiz barcha soha kabi iqlim o'zgarishlariga qarshi birgalikda kurashishga, "yashil" energetikani rivojlantirishga, Orolbo'yi ekologik muammolariga e'tiborni qaratib, bu borada yangi tashabbuslarni ilgari surdi. Shuningdek, mavjud muammolarni tizimli hal etish uchun vazirlar darajasida Turkiy ekologiya kengashini tuzish taklifi ham bildirildi. Mazkur tuzilma qarorgohini ekologik ofatdan eng ko'p zarar ko'rgan hudud – Orolbo'yidagi yirik shahar Nukusda joylashtirish ayni muddao bo'lishi ta'kidlab o'tildi.

Shuningdek, joriy yilning noyabr oyida Bokuda o'tkaziladigan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 29-Iqlim sammiti (COP – 29) mamlakatlarimiz uchun ulkan voqe'lik bo'lishi hamda O'zbekiston mazkur nufuzli anjumanda faol ishtirok etishi va bu borada Ozarbayjonga har tomonlama ko'maklashishga tayyor ekanligi bildirildi.

Nufuzli tadbirida O'zbekistonning "yashil" energetika sohasidagi siyosati, xususan, 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini keskin oshirish, energetika balansida ularning ulushini 40 foizga yetkazish maqsadlari haqida ma'lumot taqdim qilindi.

Albatta, mazkur sammitda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan barcha yo'nalishdagi tashabbuslar aniq dastur va loyihalar orqali hayotga tatbiq etiladi. Bu esa, o'z navbatida, turkiy davlatlar xalqlarining taraqqiyoti va tinchligi uchun muhim ahamiyatga ega.

Mohira XO'JAYEVA,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati,  
O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zosi.

## YANGILIKLAR xabarlar

## TAFSILOTLAR

## Ro'yxatdan o'tish boshlandi

2024/2025 o'quv yilida ikkinchi va undan keyingi ta'lim (ikkinchi mutaxassislik) uchun talabgorlarni ro'yxatdan o'tkazish boshlandi.

Ro'yxatdan o'tish yagona ta'lim xizmatlari portali orqali joriy yilning 10-avgustiga qadar onlayn shaklda amalga oshiriladi.

Bunda nomzodlar platformada o'zining pasport va JSHSHIR ma'lumotlari haqida axborotlarni kiritishi, diplom va ilovaning elektron nusxasini yuklashi hamda o'qish istagini bildirgan oliy ta'lim muassasasi va ta'lim yo'nalishini tanlashi kerak bo'ladi.

Qayd etish kerakki, ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limot bo'yicha o'qitish to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

## Texnopark tashkil qilinadi

Qo'qon shahar hokimligi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamkorligida ushbu qadimiy kentda zamonaviy texnopark tashkil qilishga kirishildi.



Majmuada texnopark ilmiy-tadqiqot institutlari, sanoat korxonalari, biznes markazlari, ko'rgazma maydonchalari, ta'lim muassasalari barpo etiladi. Shuningdek, xizmat ko'rsatish, infratuzilma obyektlari, turarjoy binolari joylashtiriladi.

Texnoparkda innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun hududiy, ilmiy, texnologik va texnik baza yaratish maqsad qilingan.

## Oilaviy poliklinika yangi qiyofa da

O'zbekiston tumani markazidan 15 chaqirim uzoqda joylashgan O'qchi qishlog'ida 74-oilaviy poliklinika investitsiya dasturi asosida rekonstruksiya qilinib, foydalanishga topshirildi.



Kunlik 100 qatnovga mo'ljallangan poliklinikaning qurilish-ta'mirlash ishlariga 2 milliard 463 million so'm mablag' sarflandi. Muassasa so'nggi rusumdagi tibbiy jihozlar bilan ta'minlandi. Natijada ushbu hududda yashovchi 12 mingdan ziyod aholiga malakali xizmat ko'rsatish uchun barcha sharoit yaratildi.

## Daraxtlarga nafas bering!

Andijon viloyatida ana shu shior ostida tadbir bo'lib o'tmoqda.



Yurtimizning ko'p joylarda daraxtlarga reklama taxtachalari osib qo'yish, yo'llarni asfaltlash yoki betonlash paytida ko'chatlarni ham sug'orish imkoniyatlari kechikib qo'yiladi. Bu daraxtlarning nafas olishiga to'sqinlik qilib, bevaqt qurishiga sabab bo'ladi.

Tadbir doirasida bir haftada 75 ta daraxtlarning tag qismlari beton va asfalt qoplamalardan ochilib, parvarishlash uchun qulay sharoit yaratildi. 50 tupdan ziyod daraxtlardan reklama bannerlari olib tashlandi.

"Xalq so'zi".

## Shu yilning 18 – 20-avgust kunlari Samarqand shahri ITKF karate-do bo'yicha Osiyo chempionatiga mezbonlik qiladi.

Xalq so'zi  
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Senati Kengashi

## Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-742. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqab. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:  
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;  
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohnani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir A. Soyibnazarov.  
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 21.35 Topshirildi – 00.50 1 2 3 4 5 6